



Turkiy tillarda ilmiy-qiyosiy tadqiqotlar va metodologiya xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**Научные-сравнительные исследования
и методология в тюркских языках**

**Scientific and comparative studies
and methodology in Turkic languages**

International scientific and practical conference



15-16-oktabr, 2026-yil, Chirchiq

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘iga (№ 287) muvofiq xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy tadbirlar rejasiga asosan Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida hamda Qozog‘iston Respublikasi Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti hamkorligida

2026-yil 15-oktabr soat 10.00 da

“TURKIY TILLARDA ILMIY-QIYOSIY TADQIQOTLAR VA METODOLOGIYA”
mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi rejalashtirilgan

Anjumanning asosiy maqsadi – turkiy tillar oilasiga mansub tillarning o‘zaro qiyosiy tahlili orqali ularning umumiy lingvistik xususiyatlari va milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini aniqlash, zamonaviy lingvistika metodologiyalari negizida tadqiqotlar olib borish hamda turkiy tillar nufuzini oshirish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Anjumanning asosiy vazifasi –Turkiyshunoslikning nazariy asoslarini rivojlantirish, zamonaviy lingvistika va raqamli texnologiyalar vositasida turkiy tillarning global axborot makonidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladigan amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish, turkiy xalqlar tiliga oid ilmiy tadqiqot olib borayotgan yetakchi olimlar, filolog mutaxassislar va yosh izlanuvchilarning yangi natijalarini muhokama etish, shuningdek, mahalliy va xalqaro ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, qo‘shma ilmiy loyihalar va raqamli resurslar yaratishdan iborat.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan barcha professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, shuningdek, magistrant va talabalarni ushbu konferensiyada faol ishtirok etishga taklif etamiz!

Anjumanga quyidagi sho‘balar bo‘yicha materiallar qabul qilinadi:

1-sho‘ba: Turkiy xalqlar tili va adabiyoti: tadqiq, tahlil va talqin muammolari;

2-sho‘ba: Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari;

3-sho‘ba: Til va adabiyot ta’limi metodologiyasi va integratsion yondashuvlar.

4-sho‘ba: Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik.

Anjumanning rasmiy tillari: o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillar.

Maqolani tayyorlashga qo‘yiladigan talablar:

- ilmiy axborot hajmi – 3 betdan kam bo‘lmasligi kerak;
- maqola matni Doc formatida, 1 intervalda, o‘ng tomondan – 15 mm, chap tomondan – 30 mm, yuqori va pastdan – 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 12 kegl shriftida tayyorlanadi;

- maqola nomi 12 so‘zdan ortmasligi va katta harflar bilan berilishi lozim;
- maqola annotatsiyasi 50-60 so‘zdan iborat bo‘lishi, ingliz yoki rus tillarida keltirilishi lozim;
- annotatsiyadan so‘ng kamida 5-7 ta kalit so‘z berilishi, ingliz yoki rus tillarida keltirilishi zarur.

Muallif haqida ma'lumotlar: Maqola nomidan 1 interval pastda, o'ng tomonda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi qoraytirilgan harflar bilan, keyingi qatorlarda muallifning ilmiy darajasi, unvoni, tashkilot nomi va elektron manzili qiya harflar (kursiv)da ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va havola keltirish tartibi:

- iqtibosdan so'ng to'rtburchak qavs ichida manbaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan tartib raqami va manba sahifasi ko'rsatiladi. Namuna: [1: 23];
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati matn so'ngida namunada ko'rsatilgan tartibda beriladi.

Maqola matnida keltirilgan faktlarning to'g'riligi va aniqligiga mualliflar javobgar. Ijobiy xulosalangan va nashrga tavsiya qilingan maqola mualliflariga to'lov rekvizitlari yuboriladi.

Konferensiya materiallari **Google Schoolarda** indekslanadi, har bir maqola uchun **DOI** raqami, ustozlar uchun alohida internet URL manzili hamda anjuman ishtirokchilariga sertifikat taqdim etiladi.

Anjumanda ishtirok etish shakli: Anjuman an'anaviy shaklda hamda ZOOM platformasi orqali tashkil qilinadi.

Anjumanda ishtirok etish shartlari:

Anjumanda ishtirok etish uchun maqola va tezislar 2026-yil **5-oktabrgacha** qabul qilinadi. Tashkiliy qo'mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmagan taqdirda bu bo'yicha izoh bermaslik huquqiga ega.

Maqola va tezislar uchun badal to'lovi:

1. Professor-o'qituvchilar, doktorant, mustaqil izlanuvchi, magistrlar uchun – **120 000** (bir yuz yigirma ming) so'm.

2. Talabalar uchun – **70 000** (yetmish ming) so'm.

To'lovlar uchun plastik karta raqami – **9860 0101 3011 7194** (*Saidov O'lmas Raxmatovich*). To'lovdan keyin chekni yuborishingizni so'raymiz.

Maqola va tezislar 2026-yil **5-oktabrga qadar** saidov7502@gmail.com elektron pochta yoki **+99899 234-75-24** (*Murodova Firiza Jalolovna*), **+99890 906-39-07** (*Duysebayeva Dilbar Uskanovna*) telegram orqali qabul qilinadi.

Manzil: Chirchiq shahar Amir Temur ko'chasi 104-uy.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

MUROJAAT UCHUN TELEFONLAR VA ELEKTRON MANZIL

Konferensiya uchun ariza yuborish havolasi: <https://yangi.cspu.uz/filologik-talim>

Tezislar yuborish va to'lov masalalari bo'yicha quyidagi raqamlarga murojaat qilishingiz so'ralad:

Murodova Firiza Jalolovna
+998 99 234 75 24

Duysebayeva Dilbar Uskanovna
+998 90 906 39 07

Muxtarova Shaxnoza Mashrabovna
+998 91 776 57 58

Jarasbayev Nurkeldi Abdurashid o'g'li
+998 97 754 04 94

(Alifbo tartibida berilsa yaxshi bo‘lar edi.)

ARTICLE NAME

*Murodova Firuza Jalolovna,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Chirchik State Pedagogical University,
firuzamj1984@gmail.com*

Annotatsiya. Annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya, annotatsiya.

Kalit soʻzlar: kalit soʻzlar, kalit soʻzlar, kalit soʻzlar, kalit soʻzlar, kalit soʻzlar, kalit soʻzlar.

Annotation. Annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation.

Keywords: Keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords.

Аннотация. Аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация.

Ключевые слова: ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова.

(Annotation, keywords must be in the language of the article and in English or Russian)

Main text Main text Main text Main text Main text Main text Main text Main text Main text
Main text Main text Main text Main text Main text Main text. Main text. Main text. Main text. [1:
23].

References:

1. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 128 b.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. Soʻz estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 40 b.
3. Azimov I. XX asr boshlarida oʻzbek tilshunosligining rivojlanish yoʻnalishlari. Filol. fan. dok.... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 36 b.
4. Dolimov Sh.Z. Xalqaro va milliy xavfsizlikka oid harbiy terminlarning izohli lugʻati. – Toshkent, 2012. – 109 b.
5. Moʻminov S., Moʻminov T. Notiqlik va vatanparvarlik uygʻunligining lingvokulturopedagogik tadqiqi. FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – № 3.
6. Süer Eker. Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji. – Ankara, 2007. – 255 c.

НАЗВАНИЕ СТАТЬИ

*Муродова Фируза Джалоловна,
доктор философии (PhD) по филологии,
Чирчикский государственный педагогический университет,
firuzamj1984@gmail.com*

Аннотация. Аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация, аннотация.

Ключевые слова: Ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова, ключевые слова.

Annotation. Annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation, annotation.

Keywords: Keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords, keywords.

(Аннотация, ключевые слова должны быть на языке статьи и на английском или русском языке)

Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст Основной текст. Основной текст. Основной текст. Основной текст. [1: 23].

Список литературы:

1. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 128 b.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. Soʻz estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 40 b.
3. Azimov I. XX asr boshlarida oʻzbek tilshunosligining rivojlanish yoʻnalishlari. Filol. fan. dok.... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 36 b.
4. Dolimov Sh.Z. Xalqaro va milliy xavfsizlikka oid harbiy terminlarning izohli lugʻati. – Toshkent, 2012. – 109 b.
5. Moʻminov S., Moʻminov T. Notiqlik va vatanparvarlik uygʻunligining lingvokulturopedagogik tadqiqi. FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2023. – № 3.
6. Süer Eker. Türk dil bilimi bakımından tarihi askeri terminoloji. – Ankara, 2007. – 255 c.